



## STOMATOLOGIYANING TARIXIY TARAQQIYOTI VA ZAMONAVIY YO'NALISHLAR

*EMU university*

*Stomatologiya yo'nalishi 1-kurs talabasi*

*Toshpo'latova Odina Shavkat qizi*

[odinatoshpulatova27@gmail.com](mailto:odinatoshpulatova27@gmail.com)

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada stomatologiyaning hayotimizdagi o'рни va rivoji haqida so'z yuritilgan.

**Kalit so'zlar:** Stomatologiya, gigiyena, kariyes, plombalash, restavratsiya, ortodontiya, breketlar.

**Annotation:** This article explores the importance of dentistry in human life and its development over time.

**Keywords:** Dentistry, hygiene, tooth decay, tooth filling, restoration, orthodontia, braces.

**Аннотация:** В данной статье рассматривается значение стоматологии в жизни человека и её развитие с течением времени.

**Ключевые слова:** Стоматология, гигиена, кариес, пломбирование, реставрация, ортодонтия, брекетты.

Stomatologiya tibbiyotning og'iz bo'shlig'i, tish va milkar sog'lig'iga e'tibor qaratuvchi sohasi hisoblanadi. Stomatologik jarayon tishlarga oid turli xil kasalliklarga tashxis qo'yish va ularni mavjud usullar yordamida davolash, aholining salomatligiga e'tiborli bo'lish va og'iz bo'shligining gigiyenasi haqida ularga yetarli ma'lumot yetkazishni o'z ichiga oladi. Mazkur jarayonlarni amalga



oshirish davolovchi-stomatolog zimmasiga yuklatiladi.

Stomatologiya fani tarixda odamlar tish muammolariga duch kelishlari va ularni hal qilishga yo'l izlashlari paytidayoq o'z ahamiyatini ko'rsata boshlagan. Masalan, stomatologiyaga oid izohlar va tish chirishi mil.avv 5000-yillardan so'ng tarqala boshlagani va qadimgi Gretsiyada Gippokrat va Aristotel tish chirishining oldini olish bo'yicha kitob ham yozgani qayd etiladi (History of dentistry).

Bundan tashqari, qadimgi Misrda insonlar allaqachon tishlarni plombalash texnikasini ixtiro qilishgan edi. Bu ixtironing asosini tishlarni restavratsiya qilish uchun dastlabki kukun-maydalangan tuxum po'sti tashkil qilgan.

Vaqt o'tishi bilan bu sohada yangiliklar paydo bo'la boshladi. Abu Ali ibn Sino, Abdul Kozim kabi lug' daholar stomatologik kasalliklarga qarshi jarayonlarni olib borish hamda tishlarni olib tashlash uchun maxsus anjomlarni ixtiro qilish kabi muhim jarayonlarda ishtirok etishgan. Zamonaviy stomatologiyada Pyer Foshardning o'rni katta hisoblanib, uning asosiy yutuqlari tish to'qimalari rangiga mos keladigan shisha qatlami bilan qoplangan oltin qoplamalar, ustiga qoplama kiydiriladigan shtiftlar, kumush yoki oltindan yasalgan va tishlarga ingichka sim bilan biriktiriladigan tishni tekislash uchun mo'ljallangan plastinkalardan iborat. (Prelinik restavratsion stomatologiya. 2022)

Yuqorida aytib o'tilgan jarayonlarning barchasi hozirgi kundagi ilg'or va takomillashgan davolash choralari paydo bo'lishining asosi bo'lib xizmat qilgani shubhasiz. Tishlarni davolash samarali bo'lishi uchun birgina stomatolog kasbi turli shifokor mutaxassisliklariga ajratilgan: terapevt-stomatolog, jarroh stomatolog, bolalar stomatologi, ortodont va ortoped kabilar. (Prelinik restavratsion stomatologiya. 2022). Har bir yo'nalish chuqur izlanish va tajriba hosil qilishni talab etadi.

Stomatologiyaning ortodontiya yo'nalishi notekis joylashgan tishlar va jag' qiyshiqliklari, moslashmagan tishlash tarzini aniqlash, tashxis, hamda kerakli



protseduralar bilan ularning oldini olish bilan shug'ullanadi. Hozirgi kunda dunyo aholisining 90 foizida kariyes mavjud bo'lishini hisobga olganda, ularning 50 foizidan yuqorisi ortodontik muammolarga duch keladi. (WHO, 2023)

Tish va jag' notekisligi asosan noto'g'ri turmush tarzidan kelib chiqadi va ularning gen orqali o'tishi ham isbotlangan. Bu kasallik muammolari asosan ayni suyaklar rivojlanayotgan va shakllanayotgan o'smirlik paytda yuzaga keladi. Maydalangan yumshoq mahsulotlar iste'mol qilish orqali jag'larni keragicha harakatga keltirmaslik, og'ir travmalar, surunkali zararli odatlar (bir tomonda uxlash), gavidani tekis ushlamaslik odati ortopedik muammolarning eng keng tarqalgan mavjud sabablaridandir. Bular oqibatida malokluziya, chaynash muammolari, nutq buzlishi va estetik muammolar kabi noxush vaziyatlar kelib chiqadi va ular inson salomatligi va qulayligiga jiddiy xavf soladi.

Muammolarni bartaraf qilish usullariga to'xtaladigan bo'lsak, rivojlangan tibbiyotda metal breketlar, elaynerlar va boshqa maxsus vositalar mavjud. Ko'p hollarda shifokor ortodontlar breketlardan foydalangan holda bemorlarni bu xavfdan halos bo'lishiga yordam beradilar. Breketlar uzoq muddat davomida tish yuzalariga o'rnatiladi va tishlarni shu vaqt oralig'ida tartib bilan o'sib rivojlanishiga imkon yaratib beradi. Hozirda mavjud breketlar: metal, keramik breketlar, elaynerlar va boshqalardir (Dental home, What are braces?).

Ammo shunday vaziyatlar borki, ularda shifokor breketlarni samarali deb aytolmaydi. Bunday holatlar yuzning o'tkir assimetriyasi asorati bo'lib, asosan jarrohlik amaliyoti bilan ideal tish va jag' tuzilishiga erishiladi.

Xulosa qilib aytganda, stomatologiya tibbiyotning ajralmas qismi bo'lib, aholi salomatligiga hissa qo'shadi. Tishlar va og'iz bo'shlig'i gigiyenasiga e'tiborli bo'lish kelajakka sarmoya bo'lib xizmat qiladi va kutilmagan jiddiy kasalliklarga duch kelish xavfini kamaytirib turadi.



**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. American Dental Education Association. *History of Dentistry*.
2. Preklinik restavratsion stomatologiya. 2022. S.X Yusupalixo'djaeva, U.A Shukurova.
3. World Health Organization (WHO). Oral health. Geneva: WHO, 2023.
4. Dental Home. (n.d.). *What are braces?* Dental Home veb-sahifasidan olindi: <https://dentalhome.my/what-are-braces/>